

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 201\_\_-yil. Sinflar: 8-“ ”. O‘qituvchi: \_\_\_\_\_

### MAVZU: Kirish

#### DARSNING MAQSADI:

- a) **ta’limiy:** o‘quvchilarga Kirish haqida ma’lumot berish;
- b) **tarbiyaviy:** o‘quvchilarda dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga shaxsiy munosabat bildirish malakasini shakllantirish;
- d) **rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

#### Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:

a) **tayanch kompetensiya(lar):** TK1, TK2;

b) **fanga oid kompetensiya(lar):** FK1.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars uslubi:** an’anaviy.

**Dars jihozlari:** darslik, tarixshunoslik atamaları lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

| DARS REJASI |                                          |                                   |
|-------------|------------------------------------------|-----------------------------------|
| №           | Darsning tarkibiy qismi<br>(bosqichlari) | Ajratiladigan vaqt<br>(reglament) |
| 1           | Tashkiliy qism                           | 5 daqiqa                          |
| 2           | Ma’naviyat daqiqasi                      |                                   |
| 3           | O‘tilgan mavzuni takrorlash              | 5 daqiqa                          |
| 4           | Yangi mavzuni tushuntirish               | 25 daqiqa                         |
| 5           | Mustahkamlash                            | 5 daqiqa                          |
| 6           | O‘quvchilarni baholash                   | 5 daqiqa                          |
| 7           | Uyga vazifa berish                       |                                   |

#### DARSNING BORISHI:

**Tashkiliy qism:** O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

**Ma’naviyat daqiqasi:** O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

**Yangi mavzu bayoni:** O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

*„Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi.“*

**Shavkat Mirziyoyev**

Aziz o‘quvchilar!

VIII sinf „0 ‘zbekiston tarixi“ darsligi Sizga Vatanimizning XVI asrdan XIX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan tarixi haqida bilim beradi. Tarixchi olimlar Vatanimiz tarixining bu davriga „So‘nggi o‘rta asrlar“ yoki „Uch xonliklar davri“ deb nom

berishgan. Bu davr tariximizning eng murakkab, ziddiyatlarga to'la davridir. Chunki bir vaqtlar dunyoda mashhur bo'lgan, jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan Temuriylar davlati XVI asr boshlarida to'la barham topdi. Siz buni ag sabablarini VII sinf „O'zbekiston tarixi“ darsligidan bilib olgansiz. VIII sinfda ularni yana bir bor esga tushirasiz. Temuriylar sulolasi hukmronligi barham topgach, yurtimizda shayboniylar sulolasi hukmronligi o'rnatildi. . Xonliklarda yuz bergan kuchli siyosiy tarqoqlik va markaziy hokimiyatning nihoyatda zaiflashuvi oxir-oqibatda dastlab shayboniylar, so'ng ashtarxoniylar, Xiva xonligida esa arabshohiylar sulolasi hukmronligining barham topishiga olib keldi. Ularning o'rnida urug'-qabila (Buxoro xonligida o'zbeklarning mang'itlar qabilasi, Xiva xonligida qo'ng'irotlar qabilasi va Qo'qon xonligida minglar urug'i) sulolalari hukmronligi qaror topdi.

Bu hodisa bir tomondan urug'-qabila sulolalariga markazdan qochuvchi mahalliy hukmdor larning qarshiligini s indirib markaziy ho-kimiyatni kuchaytirishga imkon berdi. Ikkinchi tomondan esa bir xalqning uch davlatga bo'linib yashashiga olib keldi. Ya'ni bu uch o'zbek davlati aholisining katta qismini tashkil etuvchi o'zbeklar o'zlarining yagona o'zbek xalqiga mansubligini to'la his eta olmadi.

Biroq yuqorida aytilgan fikrlardan X V I-X IX asr birinchi yarmigacha bo'lgan davrni qamrab oluvchi 350 yillik tariximiz faqat qorong'ilikdan iborat bo'lgan ekan, degan xulosa cbiqarmasligimiz lozim. Zero, o'zbek davlatlarining taraqqiyotda orqada qolishi sabablarini faqat hukmdorlar yuritgan siyosatdangina izlash adolatsizlik bo'ladi. Chunki bu davrda faqat O'rtasiyo emas, balki butun islom olami tushkunlik davrini boshdan kechirayotgan edi. Siz darslikdan ularning sabablarini bilib olasiz. Darslikdan foydalanayotganingizda har bir mavzuni o'rganishda sizga yordam beruvchi belgilarga e'tibor bering. Ular sizga tarixiy bilimlarni puxta o'rganib olishingizda ko'makchi bo'ladi.

**Mustahkamlash:** Darsning ushbu qismida o'quvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

**O'quvchilarni baholash:** O'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o'quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan o'quvchilar bilan ishlanadi.

**Uyga vazifa:** o'quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o'qib-o'rganish, qo'shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

O'TIBDO': \_\_\_\_\_

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 201\_\_-yil. Sinflar: 8-“ ”. O‘qituvchi: \_\_\_\_\_

**MAVZU: Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat**  
**DARSNING MAQSADI:**

**a) ta’limiy:** o‘quvchilarga Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat haqida ma’lumot berish;

**b) tarbiyaviy:** o‘quvchilarda dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga shaxsiy munosabat bildirish malakasini shakllantirish;

**d) rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘l bilan bilishiga erishish.

**Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:**

**a) tayanch kompetensiya(lar):** TK1, TK2;

**b) fanga oid kompetensiya(lar):** FK1.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars uslubi:** an’anaviy.

**Dars jihozlari:** darslik, tarixshunoslik atamaları lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

| <b>DARS REJASI</b> |                                                  |                                           |
|--------------------|--------------------------------------------------|-------------------------------------------|
| <b>№</b>           | <b>Darsning tarkibiy qismi<br/>(bosqichlari)</b> | <b>Ajratiladigan vaqt<br/>(reglament)</b> |
| <b>1</b>           | Tashkiliy qism                                   | 5 daqiqa                                  |
| <b>2</b>           | Ma’naviyat daqiqasi                              |                                           |
| <b>3</b>           | O‘tilgan mavzuni takrorlash                      | 5 daqiqa                                  |
| <b>4</b>           | Yangi mavzuni tushuntirish                       | 25 daqiqa                                 |
| <b>5</b>           | Mustahkamlash                                    | 5 daqiqa                                  |
| <b>6</b>           | O‘quvchilarni baholash                           | 5 daqiqa                                  |
| <b>7</b>           | Uyga vazifa berish                               |                                           |

**DARSNING BORISHI:**

**Tashkiliy qism:** O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

**Ma’naviyat daqiqasi:** O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

**Yangi mavzu bayoni:** O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

„Dashti Qipchoq deb ataluvchi geograflik hudud tilga olinadi. Bu atama irdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g‘arbiy yonbag‘ridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar cho‘zilgan dashtlarga nisbatan ishlatilgan. Ural (Yoyiq) daryosi Dashti Qipchoqni sharqiy va g‘arbiy qismlarga ajratib turgan.

---

**Bu hududlar rus manbalarida „Poloveslar yeri“ nomi bilan yuritilgan. Chunki ruslar Dashti Qipchoq aholisini poloveslar deb atashgan. Vizantiya manbalarida ular „kumanlar“, sharq manbalarida esa „qipchoqlar“ nomlari bilan qa'yd etilgan.**

---

Dashti Qipchoqning sharqiy qismi aholisi o'zbeklar deb atalgan. („O'zbek“ atamasining ma'nosini siz VII sinf „O'zbekiston tarixi“ darsligidan bilib olgansiz.) 1240-yilda Chingizxonning nabirasi, Jo'jixonning (Chingizxonning katta o'g'li) o'g'li Botuxon Oltin O'rda xonligiga asos soldi. Bu davlat Jo'ji ulusi deb ham ataladi. U Xorazm, Shimoliy Kavkaz, Volga bulg'orlari yurti, Dashti Qipchoq, Qrim va G'arbiy Sibir hududlarini o'z ichiga olgan. Rus esa unga o'lpon to'lab turgan. Oltin O'rda Jo'jixonning o'g'illari o'rtasida uluslarga bo'linishi natijasida, Dashti Qipchoqning sharqiy qismi Jo'jixonning beshinchi o'g'li Shaybonga tegdi. Ayni paytda, toj-u taxt uchun o'zaro kurash kuchaydi. Bu kurash, ayniqsa, ulusning Shaybon naslidan bo'lgan hukmdori Davlatshayx 1425-yilda vafot etgach yanada avj oldi. Ana shunday og'ir vaziyatda Davlatshayxning o'g'li Abulxayrxon siyosat maydoniga chiqdi. Abulxayrxon yosh bo'lishiga qaramay kuchli sarkardalik qobiliyatiga ega edi. Taxt uchun kurashda uni ulusdagi doimiy nizolardan aziyat chekayotgan boshqa o'zbek qabilalari hamda ruhoniylar qo'llab-quvvatladilar. Natijada, Abulxayrxon 1428-yilda „O'zbek ulusi“ deb atalgan davlatga asos soldi. Janubi-g'arbiy Sibirdagi Tura shahri bu davlatning poytaxti deb e'lon qilindi. 1431-yilda esa o'z davlatini Oltin O'rdadan mustaqil deb e'lon qildi. 1468-yilda Abulxayrxon vafot etgach, u tuzgan davlat parchalanib ketdi. Uning dushmanlari tomonidan Abulxayrxonning qarindoshlari va tarafdorlari qirg'in qilindi. Faqat nabiralari - aka-uka Muhammad Shayboniy va Mahmud Sulton, o'g'illari Ko'chukxon va Suyunchxojaxon kabi juda ozchilik omon qoldi

**Mustahkamlash:** Darsning ushbu qismida o'quvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

1. Dashti Qipchoq deyilganda qaysi geografik hudud tushuniladi?
2. Abulxayrxon qachon, qayerda va qanday davlatga asos soldi?

**O'quvchilarni baholash:** O'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o'quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan o'quvchilar bilan ishlanadi.

**Uyga vazifa:** o'quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o'qib-o'rganish, qo'shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

O'TIBDO': \_\_\_\_\_

Ushbu konspektning *to'liq va fondagi yozuvlarsiz*  
variantini olish uchun




+998946281992 telegram raqamiga yoki  
@mahmudov24 telegram adresiga xabar yozing

**Narxi 20 000 so'm**

To'lov FAQAT **click, payme** yoki **paynet\*** orqali  
**BOG'LANISH FAQAT TELEGRAM ORQALI!** Telefon qilinganda yoki sms  
yuborilganda javob bermaslik ehtimoli yuqori

*Qolgan sinf namunalari va boshqa hujjatlar bilan telegram kanalimiz yoki web  
saytda tanishingiz mumkin.*

 Telegram kanal: @uzmaktab  
Web sayt: [www.hasanboy.uz](http://www.hasanboy.uz)

\* paynet telefon raqamiga emas

hasanboy.uz